

**“TASDIQLAYMAN”**

**“Olmaliq KMK” AJ**

**Boshqaruv raisi**

**A. Xursanov**

**06.05.2024 y.**

## **Xilma-xillik va inklyuzivlik bo‘yicha “Olmaliq KMK” AJ SIYOSATI**

“Olmaliq KMK” AJ (keyingi o‘rinlarda “Kombinat” deb yuritiladi) O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasidagi yirik tog‘-kon sanoat korxonalaridan biri bo‘lib, mis, rux va qimmatbaho metallarning yirik ishlab chiqaruvchisi va yetkazib beruvchisi hisoblanadi.

Kombinat xilma-xillik va inklyuzivlikka intiladi, ishchi-xodimlar o‘rtasida ijtimoiy-madaniy xilma-xillikni ta‘minlaydi va har qanday kamsitishlarga toqat qilmaslikni namoyish etadi. Kompaniya har bir xodimning har tomonlama o‘ziga xosligini jamoaviy muvaffaqiyat va innovatsiyalar manbai sifatida ko‘radi. Kombinat Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitishlar to‘g‘risidagi konvensiyasida (№ 111) bayon etilgan tamoyillarga amal qiladi.

### **KOMBINAT MISSIYASI VA QADRIYATLARI**

Kombinat missiyasi – ishchi xodimlar orasida oshkoralik va konstruktiv jihatdan javob berish bilan ajralib turadigan inklyuziv madaniyatni yaratishdan iborat bo‘lib, bunda ishchi guruhlar hurmat, qadriyat va qo‘llab-quvvatlashni his qilishadi.

### **XILMA-XILLIK VA INKLYUZIVLIK BO‘YICHA SIYOSATNING ASOSIY TAMOYILLARI**

- xilma-xillik qadriyatini barcha tashkiliy darajalarda takomillashtirish;
- erkaklar va ayollarga teng va adolatli munosabat;
- yoshga oid soxta–salbiy fikrlar va kamsitishlarga barham berish va barcha yoshdagi Kombinat ishchi-xodimlari uchun rivojlanish va ko‘tarilish uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash;
  - mahalliy hamjamiyat vakillari bo‘lgan xodimlarni ishga qabul qilishda, shuningdek ish bilan ta‘minlash jarayonida qo‘llab-quvvatlash;
  - barcha Kombinat ishchi-xodimlariga kasbiy rivojlanish, ish va o‘qish jarayonlarida ishtirok etish uchun o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini ta‘minlash;
    - turli dinlar, e‘tiqodlar va madaniy urf-odatlarini hurmat qilish va tan olish;
    - to‘siqlarni bartaraf etish va nogironligi bo‘lgan xodimlar uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash;
    - xodimlar o‘z e‘tiqodlarini erkin ifoda etishi mumkin bo‘lgan ish muhitini yaratish.
    - ota-ona bo‘lgan xodimlarni qo‘llab-quvvatlaydigan va ularning oilaviy majburiyatlarini hisobga oladigan moslashuvchan ish muhiti va siyosatlarini yaratish.

## KOMBINAT MAQSADLARI

Kombinat maqsadi - barcha xodimlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, kamsitishning barcha shakllari va ko‘rinishlarini bartaraf etish va har qanday rejalashtirilgan tadbir yoki loyihada barcha toifadagi xodimlarning ehtiyojlari teng darajada hisobga olinadigan jarayonni tashkil etish.

### VAZIFALARI VA MAJBURIYATLARI

“Olmaliq KMK” AJ inson huquqlarini himoya qilishga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha o‘z oldiga quyidagi vazifa va majburiyatlarni qo‘yadi:

- Barcha xodimlarga mehnat faoliyatining barcha jabhalarida, jumladan, ishga yollash, ko‘tarilish, mukofot to‘lash, o‘qitish va rivojlantirishda teng imkoniyatlarni ta’minlash.

- Ko‘rsatkichlarni namoyon qilish, hamda mehnatga haq to‘lashda gender uzilishlarni bartaraf etish va ularga yo‘l qo‘ymaslik.

- 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida gender tengligiga erishish strategiyasiga muvofiq xilma-xillik tashabbuslarini ilgari surish va amalga oshirish.

- Xilma-xillik va inklyuzivlikga asoslangan mehnat jamoasini yaratishga intilish. Kombinat xodimlarni malakasi, ko‘nikmalari va tajribasiga qarab yollaydi va turli madaniy va jamoat guruhlaridan nomzodlarni faol ravishda izlashga intiladi.

- Irqi, tanasining rangi, millati, dini, jinsi, yoshi yoki boshqa har qanday xususiyatlariga ko‘ra to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita kamsitish, huquqlarni poymol qilish va ta’qib qilish kabi kamsitishning har qanday shakliga qarshi kurashish.

- Ishchi muhitni barcha xodimlar uchun teng foydalanish va teng imkoniyatlarni ta’minlash uchun moslashtirish, bu biznesimiz uchun zarur bo‘lgan innovatsion yechimlarni joriy etishda jinsi, yoshi va kelib chiqishidan qat’iy nazar, odamlarning turli nuqtayi nazarlari, tajribasi va bilimlaridan foydalanish imkonini beradi.

- Barcha xodimlarning o‘qishi va rivojlanishiga muayyan imkoniyatlarni ta’minlash.

- Ushbu Siyosat samaradorligini baholash va yanada takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash uchun muntazam o‘zaro aloqa kanallarini yaratish orqali xodimlarning xilma-xillik va inklyuzivlikka oid g‘oyalar, xavotirlar va taxminlarni ochiq ifoda etishi mexanizmlarini yaratish.

- Rahbar xodimlarni turli xil guruhlarini samarali boshqarish va kamsitishdan xoli bo‘lgan va xilma-xillikni rag‘batlantiruvchi ishchi muhitini yaratish mas’uliyatini anglab yetish uchun ko‘nikmalariga o‘qitish.

- Xilma-xillik va inklyuzivlik sohasidagi maqsadlariga erishishda taraqqiyotni o‘lchash uchun o‘lchov birliklari (metriklar) va ko‘rsatkichlarni belgilash uchun ushbu Siyosat samaradorligini muntazam ravishda baholash.

- O‘zgaruvchan tendensiyalar va eng yaxshi amaliyotlarga muvofiq ushbu Siyosatni doimiy ravishda takomillashtirish va qayta ko‘rib chiqish. Ushbu maqsadlarda xodimlardan o‘zaro aloqa, xilma-xillik va inklyuzivlik sohasidagi tadqiqotlar hamda Siyosatning dolzarbligi va samaradorligini ta’minlash uchun xalqaro standartlar va siyosatlar sohasida tegishli o‘zgartirishlar hisobga olinadi.